

**BOLALAR KAMOLOTIDA MUSIQANI O'RNI**

*Qo'shmaqova Nodira Abduvaxobovna*

*Asaka tumani 22-BMSM o'quv - marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar tarbiyasini shakllantirishda musiqa asarlarning ijobjiy ta'siri o'rganiladi. Maqolada milliy musiqa va qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning mazmun va g'oya jihatidan o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqiy asarlarni samarali o'rgatish metodlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, tarbiya, milliy qadriyatlar, o'quvchilar tarbiyasi, madaniy meros, qo'shiq, vatanparvarlik, estetik did, metodik yondashuv, ijodiy rivojlanish.

**KIRISH**

Bolalarda ijodiy rivojlanish o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki bu davrda ularning tasavvuri va ijodiy qobiliyatları eng faol rivojlanadi. Bolalar turli materiallar bilan tajriba qilib, o'zlarining hissiy va intellektual rivojlanishlarini amalga oshiradilar. Ijodkorlik bolalarga muammolarga yangicha qarash, noodatiy yechimlar topish va atrof-muhitni o'rganishda yordam beradi.

Musiqa, rasm chizish, hikoya qilish va ijodiy o'yinlar bolalarning ijodiy rivojlanishini kuchaytiradi. Masalan, musiqa bolalarning ritm va ohangni his qilishiga yordam beradi, bu esa ularning ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi. Rasm chizish esa ularga o'z fikr va tasavvurlarini vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Ijodiy rivojlanish bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları, o'ziga ishonchi va o'ziga xos fikrlarni ishlab chiqish salohiyatini oshiradi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Musiqa mashg'ulotlari bu o'rinda muhim rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etadi hamda musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, bolalar musiqa cholg'ularida ijro etish, musiqiy ritmik harakatlar hamda musiqiy-didaktik o'yinlarni tizimli amalga oshirish jarayonida faol ijodiy rivojlanish kuzatiladi. Musiqa mashg'ulotlarida ma'lum qo'shiqni kuylash yoki tinglash jarayonida unda ifodalangan badiiy mazmun, hissiy holatlar muhitida yashash va uni idrok etish natijasida bola o'zining emotsiyonal zaxirasini yaratadi hamda uning ko'magida o'zi va uni o'rab turgan atrofidagilarning hissiyotlarini yanada teran anglay boshlaydi. Maktabda bolalarni ijodiy rivojlantirish kompetensiyalari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Musiqa inson qalbini ezmilikka, yaxshilikka yo'naltiradigan san'at turlaridan biri bo'lib, undagi badiiy g'oya va estetik mazmun o'quvchilarning tarbiyasiga ijobjiy

ta'sir ko'rsatadi. O'zbek xalq musiqasi, maqom san'ati va an'anaviy qo'shiqlari ajdodlarimizning hayot tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababli, umumta'lim maktablari musiqa darslarida milliy tarbiya elementlarini qo'llash dolzARB masala hisoblanadi.

Musiqiylar asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni o'quvchilarning dunyoqarashi va estetik didini shakllantirish bilan birga, ularning ma'naviy kamolotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy kuy va qo'shiqlar o'quvchilarga ajdodlar merosini anglash, o'zlikni his qilish va milliy qadriyatlarni qadrlash imkonini beradi. Shu bois, ta'lim jarayonida milliy musiqli asarlarning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur o'rganish va ulardan samarali foydalanish dolzARB masalalardan biri sanaladi.

Ushbu tadqiqot umumta'lim maktablarida musiqa asarlarini badiiy-g'oyaviy singdirish orqali o'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida musiqa darslarining o'quvchilar ongiga ta'siri, milliy tarbiyani shakllantirish usullari va musiqa o'qituvchisining roli o'rganiladi.

Milliy tarbiya – bu har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari va axloqiy me'yorlari asosida shakllangan tarbiya tizimidir. U jamiyat a'zolarini ma'naviy yetuk, vatanparvar, mehnatsevar va odobli inson qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy tarbiya yosh avlodning o'z ildizlariga sodiq bo'lib, milliy qadriyatlarni asrab-avaylab, shu bilan birga zamonaviy taraqqiyotga moslashgan yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Agar milliy tarbiya bo'lmasa, jamiyatda milliy qadriyatlarni yo'qolib, madaniy meros zaiflashadi. Shuning uchun har bir inson o'z xalqining urf-odatlarini bilishi, hurmat qilishi va kelajak avlodga yetkazishi lozim.

Milliylik - ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlarni sintezidir. Milliy tarbiya - ana shu madaniy-tadrijiy sinteza asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir.

Bugungi kunda milliy tarbiya masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining boy musiqa merosi yosh avlodga nafaqat badiiy zavq bag'ishlash, balki ularning milliy o'ziga xosligini shakllantirish, ajdodlar qadriyatlariiga hurmat uyg'otish va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi.

Musiqa ta'limi orqali o'quvchilarga badiiy asarlarning g'oyaviy mazmunini singdirish, ularni musiqli tahlil qilishga o'rgatish nafaqat san'atga muhabbat uyg'otadi, balki ularning dunyoqarashini shakllantiradi. Hozirgi globallashuv davrida turli madaniy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda, milliy musiqaga asoslangan

tarbiya yosh avlodni o‘z milliy an’analari va qadriyatlari asosida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta’lim maktablarida musiqa darslarini faqat kuy va ashulalarni ijro etish bilan cheklamasdan, ularning badiiy-g‘oyaviy mazmunini tushuntirish orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu tadqiqot aynan shu masalaga e’tibor qaratadi va milliy tarbiyani rivojlantirishda samarali yondashuvlarni taklif etadi.

Kuzatishlat natijasida shuni alohida ta’kidlash lozimki, ayrim musiqa va san’at maktablari va umymta’lim maktabi musiqachi-pedagoglari musiqa asarini o’rgatish (shunchaki texnik ijrosiga yodlash-kuylash, cholg‘uda ijro etish,) ga urg’u berishadi. Shuning uchun ko’pchilik jamoatchilik a’zolari tomonidan bu fan “shunchaki ashula darsi”, va shunga o’xhash ta’riflar bilan ahamiyatini sayozlashtirishmoqda.

Musqa darslarini to’g’ri tashkil etish natijasida ta’lim- tarbiya berishda katta g’oyaviy ta’sirga ega kuch yotadi. Faqat bundan o’qituvchi – pedagoglar samarali foydalanish yo’llarini bilishi lozim.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlар asosida tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Globallashuv jarayonlari bilan bog’liq ziddiyatlar avvalo madaniyat sohasida ko’proq namoyon bo’lmoqda. Shu jihatdan globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deya ta’rif berish ham mumkin .

Texnologiyalar rivojlanib, turli madaniy oqimlar o‘z ta’sirini kuchaytirayotgan bir paytda milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish va tushunish yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Xalqning madaniyati, urf-odatlari va an’analari asrlar davomida shakllangan bo‘lib, ularning avloddan-avlodga o’tishida san’at, xususan, musiqa asarlarining o‘rni beqiyosdir. “Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlар milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o’tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig’indisini anglatadi. Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g’oyalari, hatto adabiyot, san’at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni o’z ichiga oladi. Har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog’liq holdagini mavjud bo’la oladi.

Musiqa darslarida o’rgatiladigan asarlar inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etib, uning hissiyot va tafakkur olamini boyitadi. O‘quvchilarga milliy tarbiya berishda milliy kuy-qo’shiqlar, folklor namunalaridan foydalanish ularning Vatanga bo‘lgan mehrini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mumtoz musiqa, xalq qo’shiqlari va

bastakorlik asarlari orqali yosh avlod o‘z tarixini, ota-bobolari hayotini, ularning ezgu niyat va orzularini tushunib yetadi.

Har bir milliy musiqiy asar ma’lum bir g‘oyani ilgari suradi. Masalan, maqom yo‘nalishidagi asarlar inson ruhiy olamini boyitib, unga sabr-qanoat, bardavomlik va ma’naviy yetuklikni singdiradi. Xalq qo‘schiqlari esa o‘tmish hayoti, qadriyatlar va ijtimoiy hayot haqida muhim ma’lumotlar beradi. Shuningdek, vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo‘schiqlar yoshlarning yuragida o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida musiqa darslari orqali, o‘quvchilar milliy kuylar bilan yaqindan tanishadilar. O‘quv dasturlariga milliy musiqa asarlarini kiritish ularning milliy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, turli tadbir va bayramlarda ijro etiladigan milliy qo‘schiqlar yosh avlodda o‘ziga xos milliy rujni shakllantirishga yordam beradi.

O‘quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda musiqiy asarlarning badiiy-g‘oyaviy ta’siri qanday hosil qilinadi? Quyida ushbu jarayon qator bosqichlar orqali metodik yondashuvlari tahlil qilinadi va misollar bilan asoslanadi.

Birinchi bosqich: Musiqiy asarning mazmuniy va g‘oyaviy tahlil qilinadi. Asarning asosiy mavzusi va unda aks etgan g‘oyalari aniqlanadi. Masalan, vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik, mehr-oqibat, tarixiy voqealar va qahramonlar haqida hikoya qiluvchi qo‘schiqlar tahlil qilinadi. Qo‘sinq matnida qanday ma’nolar yashiringanligi, qanday poetik ifodalar ishlatalgani tushuntiriladi. Shuningdek, qo‘sinq yoki kuy o‘quvchilarning ruhiyatiga qanday ta’sir qilishi, ularning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati savol-javob qilinib o‘rganiladi. Savol javob jarayonida javoblarning saviyasi ortishida, o‘qituvchi tomonidan ta’sirli misollar keltirish va boshqa yondashuvlar orqali jarayon mazmunan to’ldiriladi.

Ikkinci bosqich, bu- musiqiy vositalarning tahlili orqali amalga oshiriladi. Bunda, kuyning ritmi, ohangi va uslubiga qarab uning qaysi holat yoki kayfiyatga mos kelishi aniqlanadi. Masalan, tantanali kuylar g‘urur va vatanparvarlik hissini uyg‘otsa, lirk kuylar mulohaza va hayajonni oshirishga ta’sir etadi. Shuningdek, asarning qanday milliy cholq‘u asboblari bilan ijro etilgani va bu asboblarning milliy madaniyatdagi o‘rni tushuntiriladi. Masalan, doira, dutor, g‘ijjak, karnay va surnaylar qanday kayfiyat hosil qilishi tahlil qilib borish maqsadga muvofiq.

Uchunchi bosqich, Tarbiyaviy jihatdan tahlil bosqichi bo‘lib, bugungi kunda globallashuv jarayonida Sharqona odob-axloq me’yorlarini bilish, milliy tarbiyani asrab qolishda juda muhim sanaladi. Musiqa darslarida o‘rgatiladigan mavzular va musiqa asrlar orqali o‘quvchilarda axloqiy fazilatlar (sadoqat, mehnatsevarlik, mehr-muruvvat) va ularning hayotiy ahamiyati muhokama qilinadi.

Milliy tarbiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

O‘z xalqining tarixini, urf-odatlarini va madaniyatini bilish.

Vatanga muhabbat, unga sadoqat bilan xizmat qilish.

Hurmat, mehr-oqibat, halollik kabi fazilatlarni shakllantirish.

Ota-onaga hurmat, mehmondo'stlik, kattalarni e'zozlash.

Halol mehnat qilishga, maqsad sari intilishga o'rgatish.

Umumta'lim maktablarida 1-7-sinflarda musiqa darsligida berilgan har bir musiqa va qo'shiqlarning tarbiyaviy, badiiy – g'oyaviy mazmuni bor. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, jodkorligi, verbal va noverbal ta'siri, ta'limiy-tarbiyaviy metodikasi muhim ahamiyatga ega.

- To'rtinchı bosqich: Musiqiy asarning ta'sirini amaliy tahlil qilish jarayoni. O'rganilgan, tinglangan va tahlil qilingan musiqa asarining o'quvchilarda qanday taassurot qoldirgani so'raladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, musiqaga oid insho yoki tahliliy matn yozish topshiriqlari ham berish yaxshi natija beradi.

Ushbu tahliliy bosqich usullari, musiqiy asarlarning o'quvchilarga ta'sirini chuqur o'rganishga va milliy tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z o'mnda har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor - qilingan barcha say'-harakatlar oxir-oqibat o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini o'quvchilarning yaxshi bilimi va xush axloqida namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug' kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlilik, ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo'llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta`limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlar qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlar keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilishi mumkin bo`lgan dars jarayoni metodikasini har bir o'qituvchi o'z fani (o'quv fani) sharoitidan hamda o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o`zgartirishi yoki shular asosida o`qitish jarayonida o`zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Tavsiya etilgan qator yangi pedtexnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda o`qituvchi dastlab bu texnologiyalarning maqsadi, mazmuni, qo'llashning yo'llari, sharoitlari bilan atroflicha tanishib chiqishi, o'z fani xususiyatlaridan kelib chiqib, to`liq, qisman yoki faqat tamoyillaridan foydalanishni

o`ylab rejalashtirishi zarur. Aks holda, dars samaradorligini oshirishda deyarli biror natijaga erisha olmasligi mumkin.

Har bir o`quv fanining o`ziga xos xususiyatlari bo`ladi. Musiqa madaniyati va san'ati darslarining asosiy xususiyatlari quyidagi faoliyatlar bilan bog`liq:

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, musiqa yosh avlod tarbiyasida kuchli ta'sir vositasi bo`lib, milliy ongni shakllantirish, ma'naviyatni boyitish va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham milliy musiqa asarlarini o`quvchilar orasida keng targ`ib qilish, ularning ma'no-mazmunini tushuntirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko’tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli, qarori.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 - sonli Qarori.
3. Sh. M. Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz". -T., "O'zbekiston", 2017.
4. X.Ibraimov, M. Quronov “Umumiy pedagogika” Darslik -T., “Sahhof”, 2023,416 bet.
5. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210 .
6. Бабаева Д.Ю. Развитие творческих способностей у детей – дошкольного возраста// Материалы IX Международной научной конференции. 2023 г.
7. Ветлугина Н.А. “Методика музыкального воспитания в школе» Москва.1982 г.